

15-Iyun, 2026-yil

**”TEMURIYLAR VA USMONLI TURKLAR O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARI  
ULARNING QO‘SHINI TUZILISHI”.**

**Sadullayev Boburxon**

*O‘ZMPU Tarx fakulteti III bosqich talabasi.*

[sadullayevboburxon984@gmail.com](mailto:sadullayevboburxon984@gmail.com)

**Anonatsiya:** *Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda Amir Temur asos solgan Temuriylar va hozirgi Turkiya hududida hukm surgan qadimgi Usmonli Turklar davlati haqida, har ikki davlatning elchilik munosabatlari va qo‘shinlari tuzilishi haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *Usmonli Turklar, Temuriylar, qo‘shun, musallam, sulton, yasoq, yanichar, sipohiy, ulus, davlatchilik, Zafarnoma, Kichik Osiyo, Xudovandigor, Yildirim, Qora Quyunli, barong‘or, javong‘or, qalb, Nikopol, avangard, birliklar, Luriston, g‘uriylar.*

O‘rta Osiyoda XIII-XIV asrda Movarounnahrda Temuriylar imperiyasi hukm surgan. Bu davlat asoschisi Amir Temur hisoblanadi. Uning davlat tuzishi va tuzilishi haqida ko‘p malumotlar yozib qoldirgan, lekin uning qo‘shin tuzilishi haqida malumotlar hali ham to‘liq qayd qilinmagan. Bu haqda faqat Zafarnomada va Ibn Arabshohning asarlarida malumotlar keltirilgan. [1]

Temuriylar qo‘shin tuzilishi o‘sha davr boshqa sarkardalar qo‘shin tuzilishidn keskin farq qilgan. Amir Temurning qo‘shin tartibiga uning bo‘linishiga qaysi tarafda qaysi qism turishiga o‘z ko‘zi bilan ko‘rib o‘zi bo‘lgan. [2]

Temuriylar davlatida qo‘shin davlatning asosiy tayanchi bo‘lib xizmat qilgan. Amir Temur to taxt ustiga kelguncha qo‘shin tuzish taktikasini mukammal bilishga haqarakat qilgan. Qo‘shin tuzilishi harbiy yurishlar davrida esa bu qo‘shin yurishga shay holatga keltirigan. Shunindek Temuriylar davlatida maxsus qo‘shin bo‘lib u temuriy shahzodalar va beklarni himoya qilishga moslashgan edi. 1299-yilda hozirgi Kichik Osiyo hududlarida Usmon ismi bilan ataladigan Usmoniylar davlatiga asos solinadi. Bu davlat ham qo‘shni Vizantiyaning ichki kurashlaridan foydalanib o‘z mustaqilligini elin qildi. Bu beylikda qo‘shin asosan qo‘shni hududlardan kelgan alplar orqali kengaygan. Dastlab beylik faqat o‘lja uchun kurashlar olib borgan bo‘lsa Usmonning o‘g‘li O‘rxon davriga kelib beylik endi maxsus qo‘shin tuzishga va qo‘shni hududlarni egallashga qaratadi. [3]

Shu davrdan boshlab bu davlat Usmoniylar nomi bilan atala boshlandi. Davlatni esa sulton boshqarardi, uning hokimiyati monarxiya edi. Davlatni esa O‘rxon tashkil qilgan maxsus musallam degan otliq qo‘shin himoya qilardi. Bu qo‘shin asosan otliq qismga asoslangan edi. Bu qo‘shin yordamida sulton bir necha yirik shaharlarni egallashga harakat qilgan. [4]

Keyingi hukmdor sulton Murod{Xudovandigor} davrida Usmoniylar davlati yangi hududlarni egallashni boshladi. Uning davrida “yanicher” turkcha yangi qo‘shin degan manoni bildirardi. Bu qo‘shinga sultonning maxsus gvardiyasi bo‘lib xizmat qildi. Bu

15-Iyun, 2026-yil

qo‘shin bilan sulton katta hududlarni bir necha egallay boshladi. Va janglarning ko‘pini aynan shu “yanichar”lar hal qilardi. [5]

Amir Temur davlatida qo‘shin asosan turli birliklarga bo‘linganligi va ularning tuzilishi ham har xil bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Temuriylar davlati qo‘shni hududlarni egallashmoqchi bo‘lsa unda asosiy ishni qo‘shinning asosiy ilg‘or qismi bajarardi. Temuriylar biron bir qal‘a yoki shaharni egallamoqchi bo‘lsa maxsus qism bo‘lgan unga shaharni pastki tarafdin yani tosh, shag‘alni qazish orqali shaharni agar asosiy qo‘shin egallay olmasa reja bo‘yicha bu qismga shaharni qazish yo‘li orqali egallash topshirig‘i topshirilgan. [6]

Usmonli davlatida asosan qo‘shinni yanichar va otliq qo‘shin taashkil qilardi. Yanichar tayyorlashda ham alohida mezonlar inobatga olinardi. Jumladan ular bosib olingan hududlardagi xristian bolalardan tarbiya qilinar va saralanib olinardi. Ular dastlab o‘z dinini unutar va musulmon bo‘lishi shart edi. Yanicharlarning ham o‘z qonun qoidalari bor edi. [7]

Temuriylar saltanatida harbiy qo‘shin tashkil qilish va uning tartibi asosan chingiziylardan qolgan bo‘linma asosida tuzilar va qo‘shinlar aynan “chig‘atoy ulusi” davridagi o‘nlik va birliklarga bo‘lingandi. Lekin Amir Temur 1370-yilda taxtga o‘tirgandan so‘ng bu tuzilmalarni sekinlik bilan yangiladi yo nomlarni o‘zgartirdi. [8]

Temuriylarda asosan jang taqdirini sarkarda va Amir Temurning ishonchli davlat amaldorlari hal qilardi. Sarkarda, beklarning o‘zining alohida birikmalari bor edi, va ular jangga mustaqil kirib harakat qila olardi. Shunindek Temurni nabiralarida ham alohida qo‘shinlari bor bo‘lgan va ular ham jangga kira olardi. Amir Temur umri davomida ko‘p janglar ko‘rgan va bu janglardan taktikalarni ko‘rib keyinchalik o‘z faoliyatida qo‘llaydi.

Amir Temur Oltin O‘rdaga yurishi davomida qo‘shining tuzilishiga alohida etibor qaratadi. 1393-yilda u Oltin O‘rdaga yurish boshladi u Toshkentga yetib kelganida barcha sarkarda va davlat amaldorlarini yig‘adi. Ularga shunday topshiriq beradiki unda bo‘lajak yurish uchun jang taktikasi va qo‘shin salohiyati shunindek dushmanning jang taktikasi chingiziylarning jang ko‘nikmalari endi o‘zining qo‘shinida naf bermayotganini sarkardalarga aytadi. Amir Temur topshirig‘i bilan chingiz “Yasoq”i endi naf bermasligi aksincha uning zamondan orqada qolganini aytadi. [9]

Usmoniylarda jang tuzilishi dastlab otliq “musallam” deb atalgan deb atalardi. XIV asrdan boshlab davlat hududi kengayib borardi, davlatga esa muntzam otliq qo‘shinlar kerak edi. 1396-yilgi Nikopol maydonida Usmonlilar Birlashgan Yevropa qo‘shinlarini mag‘lubiyatga uchratadi. Bu jarayon Yevropada ulkan sarosima va qo‘rquv bilan esga olinadi. Bu vaqtda Usmonlilar taxtiga Boyazid o‘tiradi, u taxtga o‘tirgan so‘ng qisqa vaqtda g‘alabalarga erishdi va “Yildirim” degan nomni oldi. Bu g‘alabardan so‘ng u endi bor etiborini Vizantiya poytaxti bo‘lmish Konstantinopolga qaratdi. Turkular shaharni zimdan egallashni boshlashgandi. [10]

Usmoniylar va Temuriylar davlat tuzilmasi boshqa bo‘lsa hamki butunlay farq qilardi. Usmoniylar asosan devonda bosh vazir bo‘lib sulton bilan qarorlar qabul qilsa, Temuriylarda aksincha u yerda davlat tepasida turgan shaxsgina qarorlar chiqarar va mamlakatdagi soxta xon orqali o‘z qarorlarini xalqqa yetkazardi. Ikki turk davlati o‘rtasida

15-Iyun, 2026-yil

aloqalar har xil edi. Bazi tarixchilar yaxshi desa bazilari aksincha fikr bildirardi. Toki hammasi 1402-yilgacha yaxshi ketayotgandi. O’sha voqeadan keyin hammasi boshqacha bo’lib ketti. [11]

1402-yilgi voqealarga esa sabab “Qora Quyunli” turkmanlar sardori bo’lgan Qora Yusuf sababchilardan biri sifatida, yani u Usmonli turklar hududiga qochishi va u yerdan panohtopdi. Amir Temur bu ovchoq turkmanni sulton Boyaziddan so’raydi lekin u Amir Temurning bu taklifini rad etadi, va nomaqbul so’zlar yozgan maktubni elchilar orqali Amir Temur huzuriga yuboradi. Amir Temur esa bu maktubni o’qigandan so’ng yo’lga tushadi qo’shin hali Onado’liga kirmasdan oldin Amir Temurning qo’shini saf tortib hozirgi Anqara hududiga keladi. Xuddi shu yo’nalishda Boyazid ham o’z qo’shinlari bilan Temurning orqasidan keladi. 1402-yilning ko’klamiga borib jang boshlanadi. Ikki taraf dastlab elchilik yozishmalari olib borgan bo’lsa ham bu naf bermaydi. Boyazidning kurakda turmaydigan so’zlari Amir Temurning jahlini chiqaradi va jangga kirishga majbur bo’ladi. Usmoniylar va Temuriylar o’z davrining haqiqiy katta imperiyalari kurashadigan vaqt kelgandi. Bu ikki imperiyaning urushga kirishi va qaysi birining yutishini esa tarix keyinchalik o’z yilnomalarida yozib qoldirgan. [12]

Sulton Boyazid bu jangga yaxshi tayyorgarlik ko’rgan qo’shinning old qismiga otliq suvoriylar va orqa vs yon taraflarga ittifoqchisi bo’lgan serb ritsarlarining qo’shinini qo’yadi. O’g’illarini esa har birini bir qismga bosh qilib o’z atrofida birlashtiradi. Markazda esa o’zi va yanichar qismlari bilan to’ldiradi. Turklarning joylashuvi shunday edi.

Temuriylar ham bu vaqtga kelib qo’shinni jangga olib kirish va joylashuvini hal qilayotgandi. Amir Temur buyrug’i bilan qo’shin 3 ta asosiy qismga bo’lindi. “Barong’or, Juvong’or va qalb” kabi qismlarga bo’lib chiqdi. Qo’shinning markazini valiahd Muhammad Sulton egallashi o’ng qismiga bir necha nufuzli beklar va amirlar joylashtirildi. Qo’shinning chap qanotiga esa Mironshoh va boshqa beklarni joylashtiradi. O’ng qanotga Shohruh mirzo, amir Idiku Barlos Amir Sulaymonshohlarni joylashtirib ularga bir necha birliklarni bo’lib beradi. Bu voqealarni o’z ko’zi bilan ko’rgan tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnomada” bunday qo’shin oldin bo’lmagani va Amir Temurning oldin qo’shinni bunday taqsimlab chiqmaganini yozadi. Jangga Sohibqiron fillarni ham olib borgandi. [13]

“Jahon podshohi bo’lmish Sohibqiron Qaysar bilan jangga jami bo’lib 32 ta filni olib kelg’on, alarning barchasi ul Sohibqiron o’z valinemat farzandlari mulkiga suyurgo’l qilib bergan deb malumot berganlar”

Qo’shinlar dastlab bir birini kuzatdi va 1402-yil 20-aprelda ikki qo’shin ham jangga kirdi. Dastlab turklar Movarounnahr qo’shini chap qanotiga hujum qilayotgandi. Bu Movarounnahr qo’shi uchun katta xavf solayotgandi. Ayniqsa serb jangchilari boshdan oyoq faqat zirh kiyib shiddat bilan hujum qilishi Movarounnahr qo’shinining chap qanotini parchalab tashlashga harakat qilayotgandi. Movarounnahr qo’shinining chap qanoti butunlay parchalanib ketadi. Movarounnahr qo’shinining chap qanotini himoya qilayotgan Mironshoh va uning qo’shini sarosimaga tushib qoladi. Shunda Temuriylarning markaziy qismi bir necha qismga bo’linib ketadi. Shunda Amir Temur buyrug’i bilan fillar jangga

15-Iyun, 2026-yil

tashlandi va ular aynan chap qanotda hujum qilayotgan Turklar ustiga shiddat bilan jangga kirib bordi. Ular yo'lida uchragan dushman qo'shi-nini yanchib tashlay boshlaydi. Ayniqsa bu turklarning bo'linib jang qilayotgan paytga to'g'ri kelgandi. Markazda Yildirimning o'zi yanicharlar bilan jang qilib Temuriylarni orqaga chekinishga majbur qilardi. Unga o'g'illari Sulaymon, Iso va Mehmed yordamga keldi lekin qattiq siquvga bardosh bera olmaydi. Turklarning bunday siquvga tushib qolishi qo'shinning ruhoiyatiga ham tasir ko'rsatadi. Jang shu tarzda 1- kun o'rtada hech kimning g'alaba qozonolmagani bilan tugaydi.[14]

“Zafarnomada” bu kun juda ham ko'p kishi jangdan charchaganini va o'lganini yozib qoldiradi. Temuriylar bu jangdan so'ng Amir Temurning jang uchun navbatdagi buyrug'ini oladi. Unda navbatdagi jangda endi oldinda faqat otliq sipohlar boshlashini ulardan keyin otliq qo'shin jangga kirishini buyuradi. Turklar ham bu orada jang taktikasini tuzayotgandi. Boyazidning qarori bilan jangni yanichar va otliq qo'shinlar ular bilan bir safda serb qo'shinlari boshlab beradigan bo'ldi. Temuriylar ham oldinga qanotga yuqorida aytilganidek otliq qo'shinni olib kiradilar, ularga Hudoydod Husayniy bosh bo'lishi orqasidan esa Shoh Malik qo'shinga bosh bo'lishi aytiladi. Temuriylarning markazi ancha kuchaygandi. Turklar ham qo'shinini sekinlik bilan safga tortayotgandi. Markazda Yildirimning o'zi unga Sulaymon, Iso va Mehmetlar yordam beradigan bo'ldi.[15]

Turklarning chap qanotiga esa Serblar shahzodasi Stefan o'z askarlari bilan qo'yildi. Turklar qo'shinida shunidek Qora Yusuf va u boshchiligidagi qora quyunlilar ham jangga kirishlari belgilab qo'yildi. Jang boshlandi Turklarning juda zich joylashgan joylashgan qo'shinlari Temuriylarning chap qanotiga hujum boshladi. Turklar temuriylarning chap qanotiga hujumni ayniqsa Sulaymonshoh qanoti va birliklariga hujum kuchaytirishdi. Amirzoda Rustam, Iskandar va Ahmad birliklari bilan Amir Sulaymonga yordamga keldi. Bu harakat Temuriylarning chap qanotini yorib o'tmaslik uchun edi. Amir Temur jangni kuzatarkan endi g'urlar boshchiligidagi birlikni Amir G'uriy boshchiligida g'uriylarni chap qanotga qo'yishga va u yerdan qo'yish va u yerni mustahkamlash qarorini topshirdi. Bu bilan u chap qanotni mustahkam va zarbdor kuchga aylantirmoqchi edi. Temuriylarning chap qanoti shuning bilan ancha kuchaygandi. Muhammad Sulton va boshqa birliklar markazda serblarning kuchini asosiy qo'shından ajratib qo'ymoqchi edi, lekin buni amalga oshira olmadi. Turklar asosiy otliq qo'shiniga Isoq posho bosh bo'lib Temuriylarning o'ng qanotiga Ali posho bilan hujumlar amalga oshirayotgandi. Turklarga bu yo'nalishda Amir Mizrob Joku va Murod dodhohning bir necha qism birliklarini orqaga chekinishga majbur qildi. Amir Temur vaziyatni kuzatib turarkan Luriston otabegi va Amir Allohdod, Shayx Nuriddinlarga qo'shin bilan bu birliklarni yo'q qilish va dushmanning chap qanotiga hujum boshlash to'g'risida topshi-riq berdi. Shohruh boshchiligidagi Xuroson birliklari ham markazga Muhammad Sultonga yordamga keldi. Serblar Stefan boshchiligidagi tuzilmani ancha zich joylashtirgandi. Turklarning markazi ancha harakat qilayotib qarshilik ko'rsatdi. Jang to'g'ri Shom vaqtigacha davom etdi. [16]

Jangdan so'ng har ikki qo'shin navbatdagi jang uchun rejalarini tuzishardi. Temur endi jangni Usmon Abbas boshchiligidagi avangard qism boshlashi unga Sulaymon va

15-Iyun, 2026-yil

Mizrob Jokular yordam berishi kerakligini aytdi. Jangning 3-kuni ham boshlandiki Turklar har doimgidek Temuriylarning chap qanotiga atayin hujum boshladilar. Temuriylar ham soxta hujum taktikasini yaxshi bilganliklari uchun ular ham chekinmadilar. Xufton vaqtidan so‘ng asosiy jang yana boshlandi, bu jang oxirgisi ekanini hamma bilardi.

Turklar yanicharlar va sultoni bilan markazda jang qilardi. Muhammad Sulton serblar bilan to‘qnashdi o‘g‘ir kechgan kurashda Muhammad Sulton serblarni ikkiga bo‘lib to‘zitib yubordi. Bu g‘alaba Temuriylarga kuch bag‘shladi. Dushmanning chap va o‘ng qanotlari endi Temuriylarning zarbalariga ortiq dosh bera olmadi. Ikki qanotdan Temurning buyrugi bilan Temuriylar qo‘shini Turklarni orqaga chekintirishni boshladi. Turklar hamon qattiq qarshilik ko‘rsatayotgandi, lekin Temurni jangga kirishi bilan ular ham shashtlaridan tushishdi.[17]

Markazda Turklar ancha zarbdor kuch bo‘lib harakat qilayotgandi. Yanicharlar Boyazid boshchiligida ancha kuch sarflashgandi. Lekin Turklarning boshqa qanotlari mag‘lub bo‘lganini va serblarning chekinganini eshtgan Yanicharlar oxirigacha kurashdilar lekin mag‘lub bo‘ldi. Boyazid ham jang maydonidan zo‘rg‘a qochib qutildi. Lekin Movarounnahrning qo‘shinidan Sulton Mahmud qo‘shinidan mag‘lubiyatga uchradi va asir olindi. [18]

Sulton Boyazid asir olindi va Amir Temur o‘rdagohiga olib kelindi. Usmonli qo‘shinining ko‘pchilik qo‘shinlari asir olindi. Temur mag‘lub bo‘lgan Boyazidga alohida etirof ko‘rsatdi. Boyazid va uning o‘g‘illari ham Temur oldiga kelib uning xizmatida bo‘ldilar. Temur bu jangdan keyin qo‘shinlari birligini o‘tkazdi va Samarqand sari otlandi. Temur vafot etganidan so‘ng taxtga ichki kurashlarda Shohruh o‘tirdi. U otasidan meros bo‘lib qolgan hududlarni saqlashga harakat qildi. Usmonlilarda bu vaqtga kelib ichki kurashlarda Mehmet g‘olib bo‘ldi va taxtga o‘tirdi. U davlatni mustahkamlash va kuchaytirishga harakat qildi. Yanicharlar va qo‘shin boshidan yakka tartibda tuzildi. Sipohiy va otliq qo‘shinlar Temuriylar qo‘shinidan andoza olgan holatda tuzildi. Uning jangovar ruhi ancha oshirildi. Usmonli davlati va Temuriylar qo‘shin tuzilishi bu o‘sha asr XIV-XV eng kuchli qo‘shin tuzilishiga ega davlatlar edi.

Xulosa: Bu mavzuda ikki turkiy davlat Temuriylar va Usmoniylar o‘rtasidagi munosabat ular qo‘shin tuzilishi haqida malumotlar berildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sharaffiddin Ali Yazdiy: “Zafarnom”. 2009. Toshkent.
2. Ibn Arabshoh. “Temur tarixida g‘aroyibotlar” 2001. Moskva.
3. Abdulrazzoq Samarqandiy. “Matlayi sadayin va mujmali bahrayn.”. 1986. Tehron